

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**“MADANIYATLARARO  
KOMMUNIKATSIYA MATNIDA  
TIL VA ADABIYOTNING ROLI”**

**Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

**23-24-aprel 2021 yil**

**Qarshi - 2021**

Bugungi kunda mahalliy fan va ta'lif tizimida madaniyatlararo muloqotni til va adabiyot orqali o'rganishni tashabbuskorlari chet tillari o'qituvchilari bo'lib, ular o'zga madaniyat vakillari bilan jonli muloqot qilish uchun xorijiy tilida gaplasha olishning o'zi yetarli emasligini birinchi bo'lib angladilar. Xorijliklar bilan muloqot qilishning turli xil amaliyoti shuni isbotladiki, xorijiy tilini chuqur bilish ham ushbu tilda so'zlashuvchilar bilan tushunmovchilik va ziddiyatlarni istisno etmaydi. Shunga ko'ra o'zga madaniyatlarning vakillari bilan muvaffaqiyatli aloqalarni ushbu madaniyatlarning xususiyatlarini bilmasdan va madaniyatlararo muloqotda amaliy ko'nikmalsiz amalga oshirish mumkin emasligi ayon bo'ldi. Mazkur to'plamga til va adabiyotning bugungi kungacha dolzarb deb qarayotgan bilim ahli nazariga tushgan ustoz olimlar: filologlar, adabiyotshunos va tarjimashunos bilan bir qatorda shu jabhalarda ilmiy kuzatishlarini endigina boshlagan tadqiqotchilar, magistrantlarning ham izlanish natijalari ushbu to'plamda jamlangan.

To'plam filologiya mutaxassislari, katta ilmiy xodim-izlunuvchi va mustaqil izlunuvchi, shuningdek, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va xorijiy til ta'limi masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

### **TAQRIZCHILAR:**

**Qarshibayeva U. D**

- f.f.d., professor +(SamDCHTI)

**Jo'rayeva M.M**

- f.f.d., professor (BuxDU)

### **TAHRIR HAY'ATI**

**D.X. Nabihev**

- Qarshi davlat universiteti rektori (rais)

**Xolmirzayev N.S**

- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori

**Yo'ldoshev B. Y**

- f.f.d., professor

**Jabborov X**

- f.f.d., professor

**Baxriddinova B**

- f.f.d., professor

**Qurbanov P.A**

- PhD (**mas'ul muharrir**)

**Maxmudov A.Yu**

- PhD

**Omonova M .K**

- katta o'qituvchi

**Shonazarov M. E**

- katta o'qituvchi

**Zoirova A .I**

- katta o'qituvchi

**Bobonazarova D.A**

- o'qituvchi (**mas'ul kotib**)

**To'plamdan o'rinni olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.**

## ALBER KAMYU IJODIDA “YOPIQ MAKON” VA “YOLG’IZ QAHRAMON” MAVZUSI

*Asadov Mahmadiyor Turayevich*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tanyanch doktoranti, e-mail: diyorbek.asadov@gmail.com*

**Annotation:** In the article the “closed space”, the themes of “loneliness”, the mood of the heroes in the works of French writer Albert Camus has been analysed. The issues on individuality, literary influence on Camus’s work, as well as metaphorical interpretations of images are reviewed.

**Keywords:** Outer world, closed space, prison, prisoner, loneliness, lonely hero.

XX asrga kelib insonning turmush tarzi sivilizatsiya natijasida misli ko‘rilmagan darajada o‘zgardi, murakkablashdi, odamlarning o‘zaro ruhiy-ma’naviy muloqotiga putur yetdi – kamaydi, natijada ruhiy muloqot ehtiyoji insonning ichida hibs etildi. Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikki jahon urushi oqibatida sarobga aylandi va inson o‘z ehtiyojlari bilan yolg‘iz qoldi [Hamdamov, 2020:17]. Mana shu sabablar modernistik adabiyotda bir qanda mavzular va motivlarni qalashtirib tashladi. Ayniqsa, yolg‘izlik, umidsizlik, begonalashuv kabi motivlar Sartr, Kafka, Kamyu, Bekket, Ionesko singari o‘tgan asrning zabardast adib va dramaturglari ijodida ustivorlik qildi.

Jumladan, Alber Kamyu o‘z asarlaridagi ko‘plab qahramonlarini biror xona yoki biror makonda qamaydi. Uning bunday yo‘l tutishining ma’lum sabablari bor: kimdir tashqi dunyo eshigini o‘z xohish-irodasi bilan yopsa, yana boshqasi esa o‘z istaklariga qarshi qamoqqa tiqiladi. Tashqi olamga chiqmasdan yopiq makonda qolish bu o‘zini boshqalardan uzoq tutish, ihotalash va yolg‘iz qolish demakdir. Haqiqatdan ham Kamyuning qahramonlari o‘z yolg‘izliklaridan shikoyat qiladilar. Professor Muhammadjon Xolbekov ta’kidlashicha, “Kamyu yaratgan qahramonlar bu holatga taaluqli bo‘lman, taqdir taqozasi bilan vujudga kelgan murakkab ahvol, og‘ir sharoit, mushkul vaziyat (hayotga tahdid, yaqinarning vafoti, vijdon azobi va hakozo) ta’siri ostida ruhning, qalbning ana shunday holat, kayfiyatga kelgnliklariga qaramasdan, ularning keyingi taqdiri mutlaqo har xil” [Холбеков, 2020:352]. “Begona” asarining qahramoni Merso asarning ikkinchi qismida aksariyat vaqtini tergov hibsxonasida yolg‘iz o‘tkazadi. Albatta, Merso o‘z xohishiga qarshi qotillik qilgani uchun qamoqqa olinadi, lekin hibsga olinishidan oldin, asarning birinchi qismida qahramonning butun yakshanbani o‘z xonasida o‘tkazganligi tasvirlanadi. Kunduzi u deyarli hech narsa qilmay, navbat bilan osmonga tikiladi, deraza yonida turib, o‘tib borayotgan odamlarni kuzatadi, xayollari og‘ushiga shung‘iydi. Uning holati nafaqat uning yolg‘iz hayotini, balki u qamoqdagi kelajak kunlarini, o‘zining qatl kunini kutib osmonga termulib o‘tkazgan damlarini ham ko‘rsatib turadi. Bundan tashqari, “Begona” qissasining hikoyachisi sifatida Merso o‘z hikoyasini shunday yakunlaydi: “*Hamasining oxiriga yetishini, faqat bunchalar yolg‘iz qolmasligim uchun qatl kunimda ko‘proq odamlar to‘planishini istayman, xolos – mayli ular meni nafrat hayqirig‘i bilan qarshi olsinlar*” [Камю, 2014:120]. Ushbu so‘zlar Merso o‘z kamerasida o‘zini yolg‘iz his qilayotganini va u qanday qilib bo‘lsa-da, bu hissiyotdan xalos bo‘lishga intilayotganini anglatadi.

Yopiq makon Kamyuning boshqa romantik asarlarida ham alohida ishlangan mavzudir. Masalan, “Vabo” romani qahramonlari – Oran shahri aholisi qisqa muddat ichida shaharda keng yoyilgan vabo epidemiyasi sababli bir joyga to‘planib qolishadi va shahar hokimiyati ularga shahardan chiqishni taqiqlab qo‘yadi. Romandagi deyarli barcha qahramonlar, shu jumladan, Oranda bo‘lgan odamlar ham xuddi shunday – o‘zini ihotalash va yolg‘izlik azobni boshdan kechirishadi. Qahramonlarning o‘z xohish-irodalariga zid bo‘lgan qamal holati, ularning ruhiyatida kechayotgan jarayonlar (guruh va shaxs o‘rtasida farq bo‘lsa-da) Mersoning holatiga tengdir. “Vabo” asarida ham Merso singari mahbuslar va ularning yolg‘izligi romanining markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Kamyu shu jihatlarni inobatga olib “Vabo” romani uchun Daniyel Defoning shunday gapini epigraf qilib ko‘rsatadi: “*Agar qamoqda yotishni boshqa bir qamoqda*

*yotish orqali tasvirlash mumkin bo‘lsa, unda vogelikda haqiqatan bor narsani qanaqadir umuman yo‘q narsa orqali tasvirlash ham mumkin bo‘ladi”* [Камю, 1995:5].

Aytish mumkinki, Kamyuning ko‘pgina qahramonlari sabab yoki vaziyat har qaysida har xil bo‘lsa-da, yopiq olamda o‘zlarini bandi qilish orqali yolg‘izlikka duch keladilar. Kamyu yozuvchi sifatida yopiq makonda qolgan qahramonlarini, ularning ijtimoiy va ruhiy holatini tasavvur qiladi va o‘z asarlarida aynan shunday qahramonlarni doimiy aks ettirib boraveradi. 1932 yilda Kamyu besh matndan ibora bo‘lgan prolog yozadi va ularni “G‘ayriixtiyoriy hislar” (“Intuitions”) sarlavhasi ostida birlashtiradi. Fransuz adabiyotshunosi, professor Pol Viallaneyksning ta’kidlashicha, ushbu matnlardagi “qahramonlar bir xonada (joyda) o‘zlarini bandi qilishgan” [Viallaneix, 1939:30].

Muallifning san’at va ijod haqidagi qarashlari, o‘y-fikrlari “G‘ayriixtiyoriy hislar” prologidan so‘ng juda ko‘p bor o‘zgaradi, aniqrog‘i yanada teranlashadi. U o‘z fikrlarini rivojlanterib “Musika to‘g‘risida” (“Sur la musique”) essesini yozadi. Adib unda Shopengauer va Nitsshe falsafasini chuqur tahlil qiladi, musiqani biroz g‘ayritabiyy tarzda ishlab, san’atning maqsadi to‘g‘risida o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi: “San’atning maqsadi bizni Orzular dunyosiga olib borish uchun yashayotgan dunyomizni unuttirishdir” [Camus, 539]. Ushbu satrlar Kamyuning san’at haqida yozgan dastlabki bayonidir. Bolalikdagi qashshoqligi eslab hamda o‘n yetti yoshida kasallangan sil kasalligi tufayli o‘limdan qo‘rqgan yosh Kamyu san’at orqali hayotning turli olamiga o‘zini urishni istaydi.

Kamyuning san’at haqidagi fikrlarini yanada yaxshiroq tushunish uchun Alber Kamyu ijodiga oid yirik tadqiqotlar olib borgan, akademik Jaklin Levi-Valensining quyidagi so‘zlariga e’tibor qarataylik: “*Uning (Kamyuning – M.A.) san’at haqidagi dastlabki mulohazasi haqiqatdan butunlay voz kechishga asoslangan; badiiy ijod palliativ, ya’ni hayotdan qochish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi va badiiy jihatdan yetuk asar esa hayotni o‘zgartirishga qodir*” [Lévi-Valensi, 2006:55]. O‘sha paytlarda, Kamyu adabiyotda haqiqatni unutish va rad etishdan boshqa imkoniyatni kashf etishga yaqin edi. Kamyu fransuz adiblari Andre de Rishoning “Og‘riq” va Jan Grenyening “Orollar” asarlarini o‘qish orqali o‘zining badiiy ijod tajribasini oshiradi. Bu kitoblardan ta’sirlanib, u o‘z asarlari uchun mavzular temtikasini kengaytiradi, ijodiga yanada ilhom bag‘ishlaydi. Kamyu A.Rishoning “Og‘riq” romani xususida quyidagi fikrlarini bayon etadi: “*So‘nggi yillarda men Jan Grenyeni uchratdi. O‘sanda u menga Andre Rishoning “Og‘riq” romanini berdi. Men Andre Rishoni bilmayman, ammo uning bilganlarini menga birinchi bo‘lib aytib bergen uning mana shu maftunkor kitobini aslo unutmeyman...* U mening botinimdag‘ chigal rishtalarni yechib tashladi... *Mening qaysar sukunatlarim, po‘rtanali va erkin iztiroblarim, meni o‘rab turgan g‘ayrioddiy dunyo mening oliyjanobligim, nihoyat aytilganlarning barchasi menining intim hislarim!..*” [Camus, 881-882]. Kamyu A.Rishoning “Og‘riq” asarida haqiqiy dunyonи, ya’ni o‘zi ruhan yashaydigan va o‘zi yaxshi biladigan dunyonи ko‘radi.

Kamyu shu tariqa o‘z asarlari orqali qamoqda, biror joy yoki xonada yolg‘iz qahramonlarini doimiy ravishda namoyish etishda davom etaveradi. Bu shuni anglatadiki, yopiq makon va qahramonlarining yolg‘izlikdagi ruhiy holati muallif uchun muhim masala bo‘lib qoladi. Ehtimol, Kamyu asarlarining yopiq olam bilan yaqinligi va yolg‘iz qahramonlari ijtimoiy vaziyat va adabiy asar yozgan vaqtning ehtiyojlariga javob berar, ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki, Ikkinci jahon urushining ta’siri, odamlardagi umidsizlik va nigilik (tushkin) kayfiyat adibning shu mavzularda yanada chuqurroq ishlashiga sabab bo‘lgan, deya olamiz. Kamyu adabiyot nazariyotchisi, matnshunos olim Rolan Bartga yozgan xatiga ko‘ra, “*Vabo*” – *Ikkinci jahon urushi va bosqinchilik paytida xalq boshdan kechirgan qiyin vaziyatlarni aks ettiruvchi allegorik (kinoyali, ma’joziy) roman*” [12], ekanligini aytadi. Urush davri va urushdan keyingi davrda odamlar duch kelgan umidsizlik tuyg‘usi Kamyuning aksariyat asarlarida o‘z badiiy ifodasini topgan.

Kamyu zamondosh adiblarning ham ijodida o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. U yoshlik chog‘idan zamondoshlarining ko‘plab kitoblarini o‘qigan, ular bilan yaqindan tanishib borgan. Ayniqsa, Jan-Pol Sartr ijodidan ko‘proq ta’sirlangan va o‘z navbatida Sartr ijodiga ham ma’lum ta’sirlar o‘tkazgan. Sartrning “Devor” (“Le Mur”) nomli qisqa hikoyalar to‘plami tarkibidagi ayrim

hikoyalarida Kamyu ta'kidlaganidek, "qamalib qolgan qahramonlar" tasvirlanadi. Masalan, "Xona" (La Chambre) hikoyasida fikru o'ylari, qarashlari bir-biriga sira mos kelmaydigan, bir-birini tushunmaydigan er-xotin o'z qobig'iga, o'z "xona" siga qamalib oladi. "Herostrat" ("Érostrate") hikoyasining roviysi (hikoyachisi) kunning katta qismini yettinchi qavatdag'i xonasida o'tkazadi va balkondan turib yo'lovchilarga (umuman hayotga) alamzadalik, dushmanlik bilan boqadi. "Devor" kitobida, Kamyu ta'rifi bilan aytganda, o'z qatlini (o'limini) kutayotgan o'limga mahkum qilingan mahbuslar haqida hikoya qiladi. Qizig'i shundaki, Kamyu Sartr hikoyalarini tahlil qilarkan, Sartrga kelgusidagi asarlarida yopiq xonada qamalib qolgan (olgan) qahramonlarni tasvirlashda telbalik, kasallik yoki o'lim mavzulariga murojaat qilishini ta'kidlaydi.

Modomiki, Kamyu ijtimoiy muhit va zamondoshlari asarlaridan oshkora ta'sirlangan ekan, u yopiq makon va o'zining yolg'iz qahramonlariga kuchli bog'lanib qolganini o'zgacharoq yo'sinda ifodalashi mumkin emasmi? Chunki bunday qahramonlar adibning ijodida boshdan adoq doimiy uchraydi. Demak, yopiq makon va unda o'zini topayotgan yolg'iz qahramonni eslatadigan kartina mulohaza kalitidir. Qahramonlar esa o'quvchi xayoliga maxbus va qamoqxona tasvirini o'yg'otadi. Akademik Jaklin Levi-Valensi "G'ayriixtiyoriy hislar" muqaddimasining besh matndan biri bo'lgan "Savdoiy" ("Délires")dagi xonani qamoqxonaga qiyoslaydi: "Mening xonam bir vaqtning o'zida dunyodan uzilgan bir boshpana va qamoqxonaning bir turi edi" [Lévi-Valensi, 2006:62].

Kamyu keyingi ishlarida Jan Grenyening "Orollar" romanidagi bolaxonali uyini ham tasvirlab o'tadi: "*Ko 'pincha men to 'shagimda yotib, uyning devorlari baland xonasida, kemaning yakka kamerasi yanglig' quringan chodirda aylanib yurib, o'zimni cho'l orolida deb o'yladim. Atrofimda pardalar, gilamlar, oynalar hamda faqat bitta tor va baland derazani ko'rardim*" [Grenier, 1977:45-46]. Demakki, bu tasvirdagi chodir ham "dunyo"dan, ham boshpanadan iborat qamoqxonaning bir turi. Qamoq bu odamlarni yolg'izlatib qo'yadigan odatiy bir makon, joydir. Bu qahramonlar xona derazalaridan osmonga termulishar, tashqariga boqar, yana allanimalarni o'ylab, chuqur xayollarga beriladilar va qarabdilarki, o'z qarshisida yana o'zlarini ko'radilar... Buni Mersoning o'z kamerasidagi yolg'izlik holatiga muqoyosa deyish mumkin. Shu o'rinda Kamyuning "Yon daftarchalar" idagi mana bu qaydga diqqat qaratsak: "*G'or asiri, men bu yerda dunyoning soyasi oldida yolg'izman... Agar men o'zimni topishga urunsam, bu yorug'likning tubida joylashgan bo'ladi. Agarda men dunyoning sirini ochib beradigan bu nozik lazzatni tushunishga va uni tatib ko'rishga harakat qilsam, men o'zimni olamda, borliqda topaman... Hozir, boshqa ayrim narsalar va odamlar meni to'xtatib turibdi. Ammo bu daqiqani vaqt oqimidan ajratib olishimga ijozat kerak...*" [Camus, 798-799] Kamyu bu yerda nima demoqchi, u o'zini mahbus kabi his qilyaptimi? Vaqt oqimidagi muayyan lahzalarni ajratib olish harakati san'at asarini yaratganligini anglatsa, yoki mahbus dunyoning soyasi oldida "g'or"ga bog'lanib qolgan bo'lsa, bu ijodkorlikdan boshqa narsa emas! Nima qilsa ham bu mahbus-ijodkor o'zligini anglashini, o'zini topishini oldindan his qilib turibdi. U odamlarga murojaat qilishdan avval asar yaratishni xohlaydi. Bu mulohaza bilan Kamyu Aflatunning "G'or allegoriyası" asaridan ta'sirlangan ko'rinadi. Aflatun o'zining "G'or allegoriyası"dagi faylasuflar hamda haqiqiy voqealikni ko'ra olmaydigan so'qir "mahbus"lar o'rtasidagi farqni tasvirlaydi [Platon, 2002:145]. Asar syujetiga ko'ra, mahbuslarning oyoq-qo'llari mahkam zanjirband qilinib, faqatgina oldilaridagi devorga qarashga, yon-atroflariga esa qaramaslikka majbur etilganlar. Mahbuslarning orqa tomonida olov yoqilib, olov bilan mahbuslar orasida katta devor va uzun yo'lak bo'lgan. Yo'laklarda odamlar o'zlarini, turli narsalarni, qo'g'irchoqlarni harakatlantirgan va ularning soyasi mahbuslar qarab turgan devorga tushgan. Mahbuslar ortlarida bo'layotgan voqealarning hech birini ko'rolmaydi, ular faqat ro'paralarida turgan devordagi soyalarnigina ko'ra oladi va o'sha soyalarni "bor haqiqat" deb biladi, ammo ular (soyalar) haqiqiy dunyoning aniq tasviri emas. Mahbuslar bu soyalar nimaning aksi ekanligini, asl haqiqat nima va u qayerda ekanligini o'ylab ham ko'rmaydilar. Mahbuslar orasidan juda kamchiligi bir fursat g'ordan tashqi olamga chiqib, bu soyalar nimaning aksi ekanligini, asl haqiqatni o'z ko'zi bilan ko'rishni xohlaydi. Ammo g'ordan qochib qutulish oson ish emas, buni chinakam faylasufgina qila oladi. Aflatun bir faylasufni g'ordan chiqarganini qayd etadi [13]. G'ordan chiqqan odam (faylasuf) haqiqiy dunyoni simulyatsiyadan holi ekanligini, odamlar

(mahbuslar) “borliq” deb qabul qilgan tushuncha yanglish ekanligini anglaydi va asl haqiqatni ko‘radi. Shundan so‘ng faylasuf yana g‘orga oshiqadi. Asl haqiqat tashqi dunyoda, g‘or devorlari-dagi soyalar haqiqat emas, ro‘yo ekanligini aytib, mahbuslarni g‘ordan chiqarmoqchi bo‘lganida g‘ordagilar unga ishonmay, bu haqiqatni qabul qila olmay g‘orda qoladilar va mahbuslikda, mahkumlikda yashashda davom etaveradilar. Demak, “G‘or allegoriyası” asarining Aflatun aytmoqchi bo‘lgan asosiy konsepsiysi quyidagicha degan xulosaga kelamiz: *Agar odamlar quyoshni ko‘rolmaydigan qilib zanjirband qilingan bo‘lsa va borliqni faqat soyalar orqali qabul qilsa, ular soyalarini haqiqiy deb bilib, quyoshni inkor etadilar.*

Ha, Kamyu nima demoqchi ekanligini anglagandikmiz, u o‘zini g‘ordagi mahbusga mengzaydi va chin haqiqatni bilmox istab faylasuf kabi g‘ordan chiqishga intiladi. Bu bilan u dunyodan ajralishni istayotganlarni o‘z holiga qo‘yishni so‘raydi. Shuningdek, Kamyu mahbusni qo‘lyozma asar yaratmoqchi bo‘lgan ijodkorga taqqoslagani ham diqqatga sazovordir. U “g‘or”dan chiqib, anglagan haqiqatlari xususida asar yaratmoqchi va bu bilan haqiqatning hikoyachisiga aylanmoqchi. Taxminimizcha, faylasuf g‘ordan chiqarmoqchi bo‘lgan mahbuslar uning o‘quvchilari, ya’ni bizdirmiz, ehtimol! Kamyu shu tariqa ijodkorni mahbus bilan bog‘laydi va adib o‘z ijodida qamoqxona, mahbuslar, yolg‘izlik kabi mavzularni adabiy ijod ramzlariga aylantiradi.

### **Adabiyotlar**

1. Albert Camus. Carnets, II, pp.798-799.
2. Camus, Albert. “Notes” de “Sur la musique”, I, p.539.
3. Camus, Albert. “Rencontres avec André Gide”, III, pp.881-882.
4. Grenier, Jean. *Les Îles*, nouvelle édition préfacée par Albert Camus, Gallimard, coll. «L’Imaginaire», 1977, pp.45-46.
5. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: “Akademnashr”, 2020. – B. 17.
6. Lévi-Valensi, Jacqueline. *Albert Camus ou La naissance d’un romancier*, Gallimard, coll. “Les Cahiers de la NRF”, 2006, p.55.
7. Platon, *La République*, traduit par Émile Chambry, in *Oeuvres complètes*, tome VII, 1repartie, Les Belles Lettres, 2002, particulièrement, les paragraphes «L’allégorie de la caverne» et «Ces prisonniers sont notre image», pp.145-151.
8. Viallaneix, Paul. “Le premier Camus”, in *Cahiers Albert Camus* 2, Gallimard, 1937, p.30.
9. Альбер Камю. Бегона: Кисса ва роман / Аҳмад Аъзам таржимаси. – Т.: Ёзувчи, 1995. – Б. 5.
10. Альбер Камю. Бегона; Вабо; Ён дафтарчалар; Ҳикматлар. (Сўзбоши музалифи ва масъул муҳаррир профессор А.Х.Саидов). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 120.
11. Холбеков М. XX аср жаҳон адабиёти манзаралари. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2020. – Б. 352.
12. “Lettre à Roland Barthes sur *La Peste*”, II, p.286: “*La Peste*, dont j’ai voulu qu’elle se lise sur plusieurs portées, acependant comme contenu évident la lutte de la résistance européenne contre le nazisme”.
13. [https://uz.vwikipedla.com/wiki/Allegory\\_of\\_the\\_cave](https://uz.vwikipedla.com/wiki/Allegory_of_the_cave)

### **WILLIAM FOLKNERNING “AVESSALOM, AVESSALOM!” ROMANIGA CHIZGILAR**

*Nilufar Jumayeva,  
Qarshi DU katta o‘qituvchi*

**Annotation:** This article is about the novel “Avessalom, Avessalom” by William Faulkner and gives a short draft of its characters as well as settings. This novel is considered to be one of his best novels ever. The author notes about stylistic peculiarities and he contrasts socio-linguistic, cultural and psychological aspects of the characters.

**Key words:** plot, history, epic, novel, family, setting.